

ISNN 1076-1077

PEDAGOGIKA

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY-NAZARIY
VA METODIK JURNAL

02 /2024

- PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
PEDAGOGIK INNOVATIKA
- MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI
- IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLAR TA'LIMI
- SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI
- XORIJUY TA'LIM TAJRIBALARI
- TA'LIMI TIZIMI YANGILIKLARI
- FAN VA TA'LIM FIDYOYLARI
- MAKTABGACHA TA'LIM

PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

2/2024

Bosh muharrir:

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinnbosari)

Tahrir hay'ati:

Djurayev Risbay
Abdullayeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibraimov Xolboy
Kamilova Nodira
Karlibayeva Guljaxan
Quronov Maxammadjon
Mamadaliyev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtozayeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingen va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingen.



PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND
METHODICAL JOURNAL

2/2024

CHIEF EDITOR

Kirgizbaev Abdugaffor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:

Djuraev Risbay
Abdullaeva Shaxzoda
Bulatov Saidaxbor
Ibrahimov Xolboy
Kamilova Nodira
Karlibaeva Guljahan
Kuronov Maxammadjon
Mamadaliev Abdumajid
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Murtozaeva Maxfuza
Safarova Roxat
Tojiboeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjaev Begzod

The founder: Tashkent State
Pedagogical University named after
Nizami.

The journal publishes scientific
theoretical and methodological articles
in Uzbek and Russian languages in the
fields of pedagogics, psychology,
teaching methods and technologies.
The journal has been certified under
№ 02-004 on the state registration of
the mass media from the Tashkent Press
and Information Administration as of May
26, 2014 and was awarded the
international standard number (ISSN) -
2010-5320 of periodical journals on the
basis of the 511/S contract from the
National Book Chamber of the Republic
of Uzbekistan. The journal has been
registered by the Presidium of the
Higher Attestation Commission of the
Republic of Uzbekistan under № 201/
3 as of December 30, 2013.

**RAQAMLI MUHITDA MAKTAB O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL
QOBILIYATLARINI SHAXMATNI O'RGATISH ORQALI SHAKLLANTIRISH**

Toshev Murodjon Xalilovich, BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shakllantirish instrumenti sifatida shaxmat o'yinini qo'llash jihatlari keltirilan. Shaxmatni o'rgatish jarayonini kompyuter texnologiyalari bilan bog'lash xususiyatlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: shaxmat, o'rgatish, o'quvchi, intellektual qobiliyat, kompyuter, diqqat, xotira.

**ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ ШКОЛ
В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ПОСРЕДСТВОМ ОБУЧЕНИЯ ИГРЫ В ШАХМАТЫ**

Toshev Murodjon Xalilovich, преподаватель БухГУ

Аннотация. В статье представлены аспекты применения игры в шахматы как инструмента формирования интеллектуальных способностей учащихся начальных классов. Раскрыты особенности процесса обучения шахматам на основе компьютерных технологий.

Ключевые слова: шахматы, обучение, интеллектуальные способности, компьютер, внимание, память.

**FORMATION OF INTELLECTUAL SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN A DIGITAL
ENVIRONMENT THROUGH TEACHING THE GAME OF CHESS**

Toshev Murodjon Khalilovitch, teacher at BukhSU

Abstract. The article presents aspects of the use of the game of chess as a tool for developing the intellectual abilities of primary school students. The features of the process of teaching chess with computer technologies are revealed.

Key words: chess, learning, intellectual abilities, computer, attention, memory.

Kirish. Jahon ta'lrim tizimida o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni maktab ta'lrim tizimiga keng ko'llamda tadbiq etish masalalariga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining negizi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, umumta'lum maktablari, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari va didaktik vositalarni yaratish va bosqichma-bosqich joriy qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish, ularning ichki imkoniyatlari va tabiiy qobiliyatlarini intellektual xarakterdagи o'yinlar, shuningdek, zamонавиј axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda ro'yobga chiqarishning didaktik aspektlarini tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Dunyo miqyosida shaxmat o'yining intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'siri bo'yicha bir qator yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, kognitiv qobiliyat va shaxmat mahorati o'tasidagi bog'liqlik, maktablarda shaxmatni o'rganish jarayonida egallangan ko'nikmalar, shaxmatning matematika, o'qish va umumiyl bilim ko'nikmalariga ijobjiy ta'siri, shaxmat mashg'ulotlarining maktab o'quvchilarining akademik ko'rsatkichlariga, xususan, xotiraga, doimiy e'tibor va ijodkorlikka ta'siri, shaxmatning tasavvur, tahlil, fikrlash va diqqatning maxsus shakllarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari bo'yicha

olib borilgan tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari yordamida shaxmatni o'rganish orqali umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda umumta'lif maktablarida o'quvchilarning intellektual va ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun eng qulay psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishga asoslangan yangi zamonaviy ta'lif yondashuvlarni va texnologiyalarni, shu jumladan, shaxmatni boshlang'ich ta'lif dasturiga bosqichma va bosqich joriy qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada «...shaxmatni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish» [1] kabi vazifalar belgilanib, mакtabda ta'lif sifatini oshirishda shaxmat fanining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish, shaxmatning o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari hamda pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi shaxsini intellektual rivojlanishining o'ziga xos psixologik va pedagogik mexanizmlari mavjud. Ushbu mexanizmlarni ayrim jihatlari yurtimiz olimlaridan B.Adizov, Sh.Abdullaeva, R.Djuraev, M.Davletshin, U.Musaev, A.Maxmudov, M.Ochilov, Z.Nishonova, U.Nishonaliev, R.Safarova va boshqalar o'z tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shu va boshqa ilmiy tadqiqotlarning tahlili natijasida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi intellektual rivojlanish uchun sezgir davr degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Ushbu yoshda o'qishga bo'lgan motivlar, kognitiv qiziqishlar va intellektual faoliyatning ko'nikmalari hamda qobiliyatları shakllana boshlaydi, axloqiy va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayoni boshlanadi, bolalarning individual xususiyatlari va qobiliyatları ochila boshlaydi. Shunday o'zgarishlar jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini, qiziqishini, intilishini so'ndirmagan holda ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va texnologiyalarni o'quv jarayoniga qiritish maqsadga muvofiqdir. Shunday innovatsion yondashuvlardan biri bu o'quvchilarga shaxmatni o'rgatish.

Shaxmatning o'ziga xos jihatni uning intellektual xususiyatidadir (didaktik potensiali). Shaxmat fani o'zining mazmuni va strukturasi orqali bolalarning intellektual sifatlarini rivojlantirishni jadallashtirish imkoniga ega. Shaxmat o'yini bolalarda nafaqat intellektual sifatlarini balkim shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Bolalarda ma'suliyatni xis qilish, kurashish, qadrlash xususiyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. «Shaxmat» o'quv fani quyidagi kognitiv funksiyalarni bajarishi aniqlandi: shaxmat o'ynash asoslari bilan tanishtirish; o'quvchining bilim olishga tayyorligini tarbiyalash; mакtabda o'qishga bo'lgan motivatsiyani va qiziqishni ortirish; fikrlash, bilish faoliyatini rivojlantirish, mavhum va aniq fikrlashni, xotirani, e'tiborni rivojlantirish; idrokning ijodkorligini, shaxmat o'ynining boshqa asosiy fanlar bilan o'zaro aloqasini ta'minlash; mustaqil fikrni qaror toptirish, o'zini o'zi anglashni rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarni rivojlantirish; o'quvchilarning shaxsini ijodiy rivojlantirish; qat'iyatlilikni va shaxsning boshqa ijobiy xususiyatlarini tarbiyalash.

Shaxmat bilan muntazam shug'ullangan bolada intellektual qibiliyatlar (hotira, diqqatni jamlash, rejalashtirish va bashorat qila olish) sezilarli darajada oshishi haqidagi

tadqiqotlarni ko'plab maxsus va ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, Rossiyalik akademik N.F.Talizinaning tadqiqotlarida shaxmat boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ta'sir etishi va shaxmat o'yini maqsadli o'qitilganda bu qobiliyatlar ularda sezilarli darajada oshishi hamda ushbu holat boshqa asosiy o'quv fanlarini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlarga asos bo'lishi keltirilgan.

Maktab o'quvchilarini shaxmatga o'rgatish metodikasining asosiy pedagogik jihatlari qyyidagilardan iboratligi aniqlandi: o'quvchilarni «Shaxmat o'ynash asoslari»ni o'qitish metodikasi har bir yoshdagi guruh bolalarining rivojlanishiga qat'iy mos bo'lishligi; L.S.Vigotskiyning «O'qitish rivojlanishdan bir qadam oldinda borishi kerak» degan ilmiy qarashlari hisobga olinishi; shaxmatni o'qitish bo'yicha to'plangan xorijiy va maxalliy tajribalarni boy didaktik materiallardan foydalanish; shaxmat o'ynashni o'rganish bilan parallel ravishda, kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqatini, xotirasini, mantiqiy fikrashi va qat'iyatini rivojlanishiga hissa qo'shadigan kompyuter dasturlaridan foydalanimish; maktab o'quvchilarini kompyuter yordamida shaxmat o'ynashga o'rgatishning ijtimoiy ahamiyati ta'limiy, tarbiyaviy, estetik, emotsiyal, psixologik vazifalar bilan belgilanishi o'rganildi. Jumladan: Ta'limiy – qiziqtirish, yangi bilimlarni «bilim-ko'nikma-malaka» tamoyili asosida mustahkamlash. Tegishli mashqlar va kompyuter dasturlari orqali yoshga mos intellektni (xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvur) rivojlantirish. Tarbiyaviy – turli vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish, qaror qabul qilishda qat'iyat va mustaqillik, intizom, o'z-o'zini nazorat qilish, chidamlilik, raqibni hurmat qilish kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalash. Estetik – shaxmat kombinatsiyalari olamini ochish, tasavvur uyg'otish, shaxmat ijodiyoti elementlarini rivojlantirish. Emotsional (hissiy) – g'alaba qozonganda va mag'lubiyatga uchraganda shaxsiy hissiyotlarni bosa olish va jilovlash. Psixologik (jismoniy) – qat'iyatni tarbiyalash, mag'lubiyatlardan qo'rmaslik, o'ynalgan o'yinlarni xolisona tahlil qilish, o'z-o'zini obyektiv baholash ko'nikmalarini rivojlantirish. Internet tarmog'ini imkoniyatlari kengayishi bilan turli shaxmat elektron platformalar yaratildi. Ular nafaqat o'zin dasturini balki onlayn o'ynash, o'yinlarni taxlil qilish, statistik ma'lumotlarni yig'ish kabi imkoniyatlarni o'ziga qamrab olgan. Hozirgi kunda shaxmat o'yinini o'rgatish uchun kompyuter dasturlari, o'zida nafaqat dasturlarni, balki ma'lumotlar bazalari va boshqa materiallarni qamrab olgan. Bular «Arena», «XBoard/WinBoard», «BabasChess», «Komodo», «Stockfish», «Chessbase», «Lucas Chess» va boshq.

Yuqorida keltirilgan boshlang'ich shaxmatni o'rgatish dasturlarni tahlil qilish natijasida kompyuter texnologiyalar yordamida shaxmatni o'rgatish quyidagi talablarga javob berish kerakligi aniqlandi: kompyuter shaxmat dasturlariga bolaning aqliy qibiliyatlarini tarbiyalash muammosini bevosita hal qilishga yordam beruvchi maxsus usullar kiritilishi zarur; kompyuter texnologiyalari yordamida shaxmatni o'qitish usullari davlat ta'lim standartida shakllantirilgan talablarni hisobga olishi kerak; dasturning nazariy va amaliy qismi o'quvchi shaxsini rivojlantirish, axloqiy va estetik fazilatlarni tarbiyalash, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini rivojlantirishga qaratilishi kerak; dasturlarni tayyerlashda ergonomik jihatlariga e'tibor qilish, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash; dasturiy ta'minotda bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash vositalari alohida o'rinn egalashi kerak.

Xulosa. Shaxmatni o'rgatishning kompyuter dasturlari didaktik prinsiplarga muvofiq va o'quvchilar shaxsiy sifatlariga mos ravishda faoliyk, tizimlilik, amaliyotlilik, individuallik kabi tamoyillarni hisobga olgan holda ishlab chiqish kerakligi aniqlandi.

Kompyuter texnologiyalarni shaxmat o'yniga kirib kelishi zamonaviy shaxmatni juda o'zgartirib yubordi. Bundan 15-20 yil muqaddam o'qituvchilar, murabbiylar shaxmatni o'rgatish uchun adabiyotlarni ko'rib chiqib, kerakli ma'lumotlarni qidirishga bir necha kun sarflashga majbur bo'lgan bo'lsa, hozir hammasiga bir ikki soatlar yetarlidir. Kompyuter texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda shaxmatni o'rganishga bo'lgan motivatsiya, idrok qilish, tasavvur va hissiyotlarni rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Bu vizual, chiroylı, rangli, informatsion, interfaol bo'lib, o'qituvchining vaqtini tejaydi, bolaning tezkor ishlashiga imkon beradi. O'qituvchining bola bilan differensial va individual ishlashiga hamda o'quv natijalarini tez kuzatish va baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentininr 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4954-sон «Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagи PQ-3906-sон «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari.
2. Махмудов А.Х. Творческий потенциал шахмат в инновационном образовательном процессе школы // Современное образование. - Т., 2021. - № 2 (99). - С. 74-80.
2. Махмудов А.Х., Джураев Р.Х., Ахунжонов А.Т. Дидактический потенциал шахматной игры // Наука и образование сегодня. - М., 2020. - № 6-2 (53). - Р. 70-71.

Rахматуллаев У.К.	
Стратегический подход к развитию компетенций при призывном военном обучении на основе навыков.....	165
Хусейнова У.У.	
Педагогические особенности развития профессиональных компетенций у будущих учителей.....	169
Pardayeva M.Yu.	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarning o'quvchilarni savodga o'rgatishga doir metodik tayyorgarligini rivojlantirishni ahamiyati.....	174
Bazarova N.A.	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida virtual sayohatlar qo'llanilishining samaradorligi.....	178
Хасанова Ш.М.	
Технология организации развивающего образовательного пространства в старших группах ДОО.....	183
Samatova I.A.	
O'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirish omillari.....	186
Muhammadiyeva D.D.	
O'zbekistonda o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitish muammosi va bu muammoga tizimli yondashuv.....	189
Nazarova R.S.	
Huquqbuzarlikka moyil bolalar va ularning oilalari bilan ishlashda ijtimoiy pedagog va ijtimoiy ishchi faoliyatining asosiy yo'naliishlari.....	193
Yembergenov D.T.	
Bo'lajak surdopedagolarga imo-ishora nutqini o'rgatishda bilingvual yondashuv.....	197
Abdullayev N.Q.	
Talabalarni telekomminikatsion ta'lif faoliyatiga tayyorlashdagi vositalari haqida.....	200
Kenesbaeva E.J.	
O'quvchilarni intellektual sohalarini rivojlantrish asosida mustaqil ijodiy faoliyatga undash imkoniyatlari.....	203
Калыбаева А.Е.	
Теоретические предпосылки воспитания толерантности у детей дошкольного возраста на основе применения принципа диалога культуры.....	207
Qodirov U.I.	
Ta'lif samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	211
Botirov U.V.	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'naliishi talabalarining harbiy-vatanparvarlik tayyorgarligi modeli.....	214
Muhammadjonova D.F.	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limga nutqiy tayyorlash usullari.....	218
Egamberdiyeva Yu.U.	
Boshlang'ich sing o'quvchilarining ochiq qo'shma faoliyatini rivojlantrish metodikasi pedagogik muammo sifatida.....	222
Sobirov D.T.	
Talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirish usullari.....	227
Toshev M.X.	
Raqamlı muhitda məktəb o'quvchilarning intellektual qobiliyyatlarını şaxmatni o'rgatish orqali shakllantirish.....	233
GUMANITAR VA IJTIMOIY FANLAR TA'LIMI	
Нурманов А.Т., Каримова З.О.	
Lingvokulturologicheskiy aspekt rechevoy realizatsii koncepta «Rodina».....	237
Xonimkulov A.R.	
Ofitsier pedagog nutqiga talablar.....	242
Гулямова З.Р.	
Lingvisticheskaya sushnost' stilicheskogo priyema antiteza.....	246
Reymova N.A.	
So'pbosli Sipira Jirovning yoshlar tarbiyasi haqidagi qarashlar.....	250
Sharipova G.O.	
Buston as a means for moral development.....	254
Egamberganova D.D.	
Abdulhasan Movariyning «Dunyo va din odobi» asarida axloq masalalarini aks etish.....	258
TABIYY FANLAR TA'LIMI	
Qurbanazarov I.T.	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligiga tegishli sifatlarni rivojlantrish.....	261
Nazarov I.U.	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lif sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashda modulli o'qitish texnologiyasining o'rni.....	266
Adasheva M.U.	
Ta'lif tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llashning dolzarbligi.....	270
Koliqova O.Yu.	
Farmasevtika xodimlarini kasbiy rivojlantrishni amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.....	275
Fayzullayev J.J.	
O'quvchilarning axborot xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-pedagogik konseptual modeli.....	279
Mirzayeva G.O.	
Fizika fanini masofaviy o'qishda virtual laboratoriyalari.....	282
Karimov N.A.	
PISA 2022 xalqaro taddiqotida matematik savodxonlik qamrov doirasi.....	285
Sa'dullayev A.A.	
Talabarda dasturlash texnologiyalari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantrish.....	290
Asrorov O.A.	
Talabarda gron texnologiyasi asosida axborot kompetentligini rivojlantrish.....	294
SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR TA'LIMI	
Lutfullaev A.Q.	
Musika ta'limida yangiliklar.....	298
Abdirasilov S.F.	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining mahoratini rivojlantrish.....	301
Зарипова К.	
Tanec na manege tsirka.....	306
Mirzaxalilov A.X.	
Harbiylashtirilgan ta'lif muassasasi kursantlarining jangovor tayyorgarlik kompetentligini jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali oshirish usullari.....	311
Raxmonov A.A.	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish.....	315
Berdiev B.Ch.	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy kurash vositasida sog'lom turmush madaniyatini rivojlantrish.....	318